



“TASDIQLAYMAN”

«SHGKM» MCHJ

Bosh direktor o'rinbosari


N. Xalilov

2024 y

«18» 09



No: \_\_\_\_\_



“SHGKM” MCHJ ehtiyoji uchun

Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash yuzasidan

# TEXNIK TOPSHIRIQ

## 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR


### 1.1. Nomi

Lazer guruch.

### 1.2 Sotib olishning asosiy maqsadi

**Asos:** Umumiy ovqatlanish sexining 2024 yil uchun NAVBATDAN TASHQARI buyurtmasi, Maqsad: "SHGKM" MCHJ (keyingi o'rinlarda – Majmua)ning UOS, oshxonalarini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va "SHGKM" ishchi-xodimlarini 2024-yil sentyabr – oktyabr oylarida rejali ta'mirlash ishlari davomida sifatli issiq ovqat bilan ta'minlash.

### 2. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan texnik talablar

№	Mahsulot nomi	Asosiy texnik talablar	O'lchov birligi	Miqdori
2.1	Lazer guruch GOST R 6292-93		kg	4000
2.2	Sholining oliy navli mahsuloti			
2.3	Mahalliy dalalarda yetishtirilgan			
2.4	2023 – yilda yetishtirilgan hosili va oq rangda			
2.5	Bir dona guruch uzunligi 6-7 mm o'lchamda			
2.6	Termentlar va kurmaklarsiz			
2.7	Har – xil hidlarsiz, donalari yaxlit siniqlarsiz butun holda bo'lishi shart.			
2.8	100 gr mahsulotda 3700-3800 dona guruch bo'lishi shart			

### 3. Lazer guruchini qabul qilish tartibi

**1-toifa:** Lazer guruchi majmua tegishli oshxonalar oshpazi va mutaxassislari tomonidan belgilangan tartibda buyurtma shakllantiriladi.

Ijrochi mazkur texnik topshiriqqa mos sifatda oliy navli sifatli lazer guruchini olib keladi.

Majmua mutaxassislari (oshpazlar) tomonidan yetkazib berilgan Lazer guruch mahsulotini sifati va miqdori tekshirib ko'riladi, so'ngra ijrochi va majmua mutaxassislari tomonidan kirim qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

Yetkazib berilgan lazer guruchi sifati bo'yicha e'tirozlar bo'lganda, ijrochi o'z hisobidan lazer guruchini qaytarib olib ketishi oliy navli lazer guruchiga almashtirib olib kelishi shart.

### 4. Lazer guruchini yetkazib berishda buyurtmachiga texnik va boshqa hujjatlarni topshirishga qo'yiladigan talablar

Tovarga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- "Ijrochi" tomonidan olib kelinadigan guruch mahsulotlariga muvofiqlik sertifikatini va sanitariya – epidemiologik xulosasiga ega bo'lishi shart.

- Tovarlar bahosi yetkazib berish xizmatini o'z ichiga oladi.

- "Ijrochi" tomonidan olib kelinadigan lazer guruchi mahsulotlari maxsus transportda yetkazib berilishi shart.

### 5. IJROCHIGA TALABLAR

Ijrochi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

5.1 Tugatilish yoki bankrotlik arafasida bo'lmasligi;

5.2 Majmua bilan sudlashuv o'tkazgan va sudlashuv jarayonida bo'lmasligi;

5.3 Noinsof yetkazib beruvchilar reestrda bo'lmasligi;

5.4 Soliq va yuqori uzilishi koeffitsienti qarzdorliklari bo'lmasligi.



## 6. TO'LOV SHARTLARI

Tomonlar o'rtasida kirim qilish dalolatnomasi rasmiylashtirilgandan so'ng 10 kalendar kunida ijrochi hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li orqali to'lov amalga oshiriladi.

## 7. YETKAZISH JOYI

O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani, Sho'rtan qo'rg'oni 180300.

## 8. YETKAZISH MUDDATI

Shartnoma tuzilganidan so'ng (kunlik, haftalik, oylik) buyurtmachi talabiga ko'ra yetkazib berilishi shart.

*Ishlab chiqdi:*

**UOS texnologi:**



G'.Eshto'xtarov

**UOS tovarshunosi:**



J. Suvonov


*Kelishildi:*

**Ishonchlilikni boshqarish  
xizmati boshlig'i:**



T. Diyorov

**UOS boshlig'i:**



A. Latipov

**MTRBX muhandisi:**



S. Qorayev

